

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 87 483,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 7,7 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 107,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,7 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	75 874,0	87 483,9	107,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	74 754,6	86 133,5	107,6
mahsulotlarga sof soliqlar	1 119,4	1 350,4	111,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	74 754,6	86 133,5	107,6
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23 946,5	25 079,9	103,8
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	16 891,7	20 776,8	111,7
sanoat	12 244,8	14 908,2	107,8
qurilish	4 646,9	5 868,6	122,0
xizmatlar	33 916,4	40 276,8	108,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10 036,3	12 317,8	111,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5 435,2	7 050,2	115,9
boshqa xizmat tarmoqlari	18 444,9	20 908,8	104,1

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 20 209,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,5 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,5	98,5
mahsulotlarga sof soliqlar	1,5	1,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	32,0	29,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	22,6	24,1
sanoat	16,4	17,3
qurilish	6,2	6,8
xizmatlar	45,4	46,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13,4	14,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,3	8,2
boshqa xizmat tarmoqlari	24,7	24,3




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 29,1 % ni, sanoat tarmog'i 17,3 % ni, qurilish 6,8 % ni va xizmatlar sohasi 46,8 % ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,4 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,6 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 3,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,8 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 29,1 %), sanoatda – 107,8 % (17,3 %), qurilishda – 122,0 % (6,8 %), xizmatlar sohasida – 108,2 % ni (46,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,6 % (14,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,9 % (8,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,1 % dan (24,3 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



6,5 %

YAHM

7,7 %



3,7 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

3,8 %



7,8 %

Sanoat

7,8 %



10,3 %

Qurilish

22,0 %




7,8 %

Xizmatlar

8,2 %

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 107,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 113,0 % va xizmatlarda – 109,7 % qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 60 632,8 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 54 673,4 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 70,4 % ni (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida – 73,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o'sishi bilan bog'liq.

**Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

54 673,4

73,1 %

2025- yil

60 632,8

70,4 %

